

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

MUSTAQIL ISH

MAVZU: Sug'urta faoliyatini yuritishning tashkiliy-huquqiy asoslari

Bajardi : Barakaeva.M

TOSHKENT-2014

Mavzu : Sug'urta faoliyatini yuritishning tashkiliy-huquqiy asoslari

REJA:

1. Sug'urta munosabatlarini tartibga solishda huquqning ahamiyati, sug'urta huquqi va uning mazmuni.
2. Sug'urta faoliyatini tartibga soluvchi asosiy qonunchilik hujjatlari.

1. Sug'urta munosabatlarini tartibga solishda huquqning ahamiyati, sug'urta huquqi va uning mazmuni

Jamiyatda fuqarolar va ularning jamoasi o'z faoliyatlari jarayonida bir-birlari bilan tegishli ijtimoiy munosabatda bo'ladilar. Ushbu munosabatlarni bir qolipga solish uchun ularni tartibga keltirish zarur, ya'ni fuqarolar va tashkilotlarning hatti-harakat qilish doirasini belgilash zarur. Bayon etilganlar to'raligacha sug'urtaga ham taalluqlidir. Sug'urta ijtimoiy-iqtisodiy qonuniyat sifatida huquqiy tomondan mustahkamlanishni talab etadi. Sug'urta fondini tashkil etish va undan foydalanish jarayonida paydo bo'ladigan munosabatlar huquqiy tartibga solinadi.

Sug'urta sohasida vujudga keladigan huquqiy munosabatlar fuqarolik-huquqiy munosabatlar tarkibiga kiradi. Bunday munosabatlar fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining huquqiy holatini, mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarning, shartnoma majburiyatlarini, shuningdek mulkiy hamda shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga soladi.

Sug'urta sohasidagi fuqarolik-huquqiy munosabatlar quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

- fuqarolar va sug'urta tashkilotlari o'rtasida shakllanadigan fuqarolik-huquqiy munosabatlar;
- sug'urta tashkilotlari o'rtasida yuzaga keladigan o'zaro munosabatlar;
- fuqarolar va maxsus davlat organlari o'rtasida paydo bo'ladigan fuqarolik-huquqiy munosabatlar;
- sug'urta tashkilotlari va maxsus vakolatli davlat organi o'rtasida paydo bo'ladigan fuqarolik-huquqiy munosabatlar.

Fuqarolar va sug'urta tashkilotlari o'rtasida paydo bo'ladigan fuqarolik-huquqiy munosabatlar tegishli shartnoma qoidalariga asoslanadi. Bunda bir tomondan sug'urta tashkilotining fuqaro oldida, ikkinchi tomondan fuqaroning sug'urta tashkiloti oldidagi burch va majburiyatlari paydo bo'ladi. YA'ni, tuzilgan shartnomaga ko'ra, fuqaro o'z vaqtida sug'urta mukofotini to'lashi shart. Sug'urta hodisasi ro'y berganda esa, sug'urta tashkiloti sug'urta shartnomasida qayd etilgan

shart va muddatlarda sugʻurta qoplamasi (summasini) fuqaroga toʻlab berishi lozim. Koʻrinib turibdiki, shartnoma –fuqarolik-huquqiy hujjat sifatida taraflarning oʻzaro munosabatini huquqiy tartibga solyapti.

Sugʻurta tashkilotlarining bir-birlari oʻrtasida paydo boʻladigan fuqarolik-huquqiy munosabatlari sugʻurta pulini va qayta sugʻurta qilish bilan bogʻliq tuzilgan shartnomalar doirasida shakllanadi. Amaldagi qonun hujjatlariga koʻra, sugʻurta tashkiloti moliyaviy barqarorlikni taʼminlash, binobarin, sugʻurtalanuvchilar oldida oʻz majburiyatini bajarishini taʼminlash maqsadida sugʻurta pulida ishtirok etishi yoxud boshqa sugʻurta tashkilotlari yoki ixtisoslashgan qayta sugʻurta tashkilotlari bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishi mumkin. Oʻzbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 959-moddasida «sugʻurta shartnomasi boʻyicha sugʻurtalovchi oʻz zimmasiga olgan sugʻurta tovonini yoki sugʻurta pulini toʻlash xavfi uning tomonidan toʻliq yoki qisman boshqa sugʻurtalovchida (sugʻurtalovchilarda) u bilan tuzilgan qayta sugʻurta qilish shartnomasi boʻyicha sugʻurtalanishi mumkin» deb alohida qayd etilgan.

Qayta sugʻurta qilish shartnomasiga nisbatan, agar qayta sugʻurta qilish shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilmagan boʻlsa, Fuqarolik kodeksining tadbirkorlik xavfini sugʻurta qilish borasida qoʻllanishi lozim boʻlgan qoidalari tatbiq etiladi. Qayta sugʻurta qilish shartnomasini tuzgan sugʻurta shartnomasi (asosiy shartnoma) boʻyicha sugʻurtalovchi keyingi shartnomada sugʻurta qildiruvchi hisoblanadi.

Fuqarolar va maxsus davlat organlari oʻrtasida paydo boʻladigan fuqaroligʻhuquqiy munosabatlar maxsus vakolatli davlat organining sugʻurtalanuvchilar boʻlgan – fuqarolarning qonuniy manfaatlarini himoya etish bilan bogʻliqdir. Amaliyotda shunday holatlar boʻladiki, sugʻurta tashkiloti sugʻurtalanuvchiga sugʻurta hodisasi tufayli koʻrilgan zararni qoplashdan asossiz voz kechishi mumkin. Bunday paytda oʻz manfaatlarini huquqiy himoya etish maqsadida sugʻurtalanuvchi maxsus vakolatli davlat organiga murojaat etishi mumkin.

Sugʻurta tashkilotlari va maxsus vakolatli davlat organi oʻrtasida paydo boʻladigan fuqarolik-huquqiy munosabatlar qonun hujjatlari asosida tartibga solinadi. Maxsus vakolatli organning sugʻurta tashkilotlariga nisbatan paydo boʻladigan fuqarolik-huquqiy munosabatlari oʻzbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va «Sugʻurta faoliyati» toʻgʻrisidagi Qonunda oʻz aksini topgan.

Maxsus vakolatli davlat organi qonunda belgilangan tartibda sug'urta tashkilotlarining faoliyatini nazorat etib boradi. Zaruriyat bo'lganda esa, sug'urtalanuvchilarning manfaatini himoya etish maqsadida undan sug'urta faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyani chaqirib olish huquqiga ega.

Sug'urtani huquqiy tartibga solish davlat tomonidan sug'urta munosabati qatnashchilarining hattig'harakatini huquqiy normalar vositasida amalga oshiriladi. Jismoniy va yuridik shaxslarning mulkiy huquqlarini har xil oldindan ko'rib bo'lmaydigan sug'urtaviy himoya qilish uchun ko'pchilik shaxslar tomonidan tashkil etiladigan maxsus fond hisobidan amalga oshiriladigan sug'urta faoliyati jarayonida paydo bo'ladigan ijtimoiy munosabatlar mavjud. Ushbu munosabatlarni tartibga soladigan normalar yig'indisiga sug'urta huquqi deyiladi.

2. Sug'urta faoliyatini tartibga soluvchi asosiy qonunchilik hujjatlari

Sug'urta faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlarini ikki turga bo'lish mumkin:

- sug'urta faoliyatini tartibga soluvchi maxsus qonunlar;
- sug'urta faoliyatini tartibga soluvchi umumiy qonunlar

Sug'urta faoliyatini tartibga soluvchi maxsus qonunlarga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 2002 yilning 5 aprelida qabul qilingan va shu yilning 28 mayida amaliyotga joriy etilgan «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi Qonuni hamda 2008 yil 21 aprelda qabul qilingan «Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash to'g'risida»gi Qonuni, 2009 yil 16 aprelda qabul qilingan «Ish beruvchilarning fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida»gi Qonuni sug'urta faoliyatini tartibga soluvchi maxsus qonunlar hisoblanadi.

SHuni alohida ta'kidlash zarurki, sug'urta munosabatlarida ishtirok etuvchi tomonlarning qonuniy manfaatlarini himoya etish maqsadida 1993 yili Oliy Majlis «Sug'urta to'g'risida» Qonun qabul qilgan edi. O'tgan yillar mobaynida mazkur qonunga ikki marta qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritildi. Tabiiyki, bu qonun o'sha paytda mavjud bo'lgan iqtisodiy jarayonlarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan. Boshqacha so'z bilan aytganda, ushbu qonun

sugʻurta munosabatlari qatnashchilari uchun biroz yumshatilgan holatda amal qildi. Jumladan, unda sugʻurta tashkilotlari tugatilgan taqdirda ularning sugʻurtalanuvchilar oldidagi majburiyatini bajarish tartibi toʻliq yoritilmagan. SHuningdek, bu qonunda qonunchilik talablarini buzganlik uchun tomonlarning javobgarligi oʻz aksini topmagan hamda davlat sugʻurta nazorati organining sugʻurta tashkilotlariga nisbatan taʼsir qilish imkoniyati keskin chegaralangan edi.

Bayon etilgan holatlar mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotining hozirgi bosqichi talablarini hisobga olgan holda, amaldagi “Sugʻurta toʻgʻrisida”gi Qonunni yangilash va takomillashtirish zaruriyatini keltirib chiqardi. SHuni eʼtiborga olib, 2002 yilning 4-5 aprel kunlari boʻlib oʻtgan ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning sakkizinchi sessiyasida “Sugʻurta faoliyati toʻgʻrisida”gi yangidan ishlab chiqilgan qonun loyihasi deputatlar tomonidan atroflicha muhokama qilindi va qabul qilindi.

Maʼlumki, sugʻurta sohasini huquqiy tartibga soluvchi 2002 yil aprel oyigacha amalda boʻlgan qonun “Sugʻurta toʻgʻrisida” deb ataladi. holbuki, biz fikr-mulohaza yuritmoqchi boʻlgan qonunning nomi esa “Sugʻurta faoliyati toʻgʻrisida” deyiladi va shubhasiz, bu holat diqqatimizni oʻziga jalb etdi. Koʻpchilik muhtaram talabalarimizda haqli savol tugʻilishi mumkin: sugʻurta va sugʻurta faoliyati tushunchalari oʻrtasida farq bormi? Savolga javoban biz mutaxassislar aytamizki: farq bor. Sugʻurtaning mohiyatini oddiy til bilan ifodalaydigan boʻlsak, oldindan koʻrib boʻlmaydigan har xil hodisalar roʻy berishi oqibatida yuridik va jismoniy shaxslar koʻradigan zararlarni sugʻurta tashkiloti tomonidan qoplash bilan bogʻliq munosabat. SHuni esdan chiqarmaslik lozimki, sugʻurta tashkiloti oʻz xizmatini mijozlarga tegishli haq - sugʻurta mukofoti toʻlash evaziga koʻrsatadi. Sugʻurtalovchi mijozlardan kelib tushgan sugʻurta mukofotlari hisobidan maqsadli pul jamgʻarmalarini tashkil etadi va bu jamgʻarma mablagʻlari faqat sugʻurta hodisalari tufayli koʻrilgan zararlarni qoplaydi. Eʼtibor bergan boʻlsangiz, sugʻurta munosabatlarida ikkita tomon ishtirok etyapdi: sugʻurta tashkiloti (sugʻurtalovchi) va yuridik hamda jismoniy shaxslar (sugʻurtalanuvchilar). Endi, sugʻurta faoliyati tushunchasiga kelsak, qonunda

ta'kidlanishicha, u sug'urta bozori professional ishtirokchilarining sug'urtani amalga oshirish bilan bog'liq faoliyati. Sug'urta bozorining professional ishtirokchilari faqatgina sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchidan iborat emas. Unda qayta sug'urtalovchilar, qayta sug'urtalanuvchilar, sug'urta brokerlari va agentlari ham ishtirok etadi.

YAngi qonunning e'tiborga molik tomonlaridan biri, unda, aniqroq aytadigan bo'lsak, uning 4-moddasida sug'urtalovchilarning sug'urtani amalga oshirish bilan bevosita bog'liq bo'lmagan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishlari mumkin emasligi qayd etilgan. Qayd etish joizki, sug'urta faoliyati ham tadbirkorlikning bir ko'rinishi. Mamlakatimizda iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayonlari kechayotgan va tadbirkorlik harakatlariga keng yo'l ochilayotgan bir paytda, tadbirkorlik tizimining muhim bo'g'inlaridan bo'lgan-sug'urtalovchilar uchun bunday cheklovning qonun yo'li bilan belgilanishiga sabab nima? o'tgan yillar tajribasi shundan dalolat beradiki, ko'pgina sug'urta tashkilotlari "sug'urtalovchi" niqobi ostida turli tijorat operatsiyalarini, xususan, savdo-vositachilik ishlarini amalga oshirdilar. YUridik va jismoniy shaxslarni sug'urta qilish hisobiga kelib tushgan sug'urta mukofotlari, qoidaga ko'ra, sug'urta qoplamalarini to'lashga mo'ljallangan zahira jamg'armalarini tashkil etishga sarflanmasdan, balki sug'urta faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga sarflangan holatlar ham bo'lgan. Sug'urtaning eng asosiy prinsiplaridan biri-sug'urtalovchilarning o'z zimmalariga olgan majburiyatlarini bajarishni ta'minlaydigan sug'urta zahiralariga ega bo'lishidir. Taassufki, ba'zi sug'urtalovchilarimiz, bunday zahiralarni shakllantirmaganliklari oqibatida murakkab moliyaviy holatni boshidan kechirganligi sir emas. Ayniqsa, bu ko'p ming sonli sug'urtalanuvchilar uchun noqulay vaziyatni vujudga keltirishi mumkin.

«Sug'urta faoliyati to'g'risida» Qonunning diqqatga sazovor joylaridan yana biri, uning 10-moddasida sug'urta tashkilotlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibini aniq ko'rsatib qo'yilganligidir. Ma'lumki, qonun hujjatlariga muvofiq, aksiyadorlik jamiyati shaklida tashkil etilgan sug'urta tashkilotlari o'zbekiston

Respublikasi Adliya vazirligida davlat ro'yxatiga olinganlar. Ammo, uzoq vaqt, aniqrog'i, 1998 yilning birinchi yarmigacha sug'urta faoliyatini tartibga solish vakolati berilgan davlat sug'urta nazorati organining tashkil etilmaganligi va ilgari Adliya vazirligida davlat ro'yxatiga olingan tashkilotlarning faoliyati hech kim tomonidan nazorat qilinmaganligi oqibatida yangi tashkil etilgan sug'urta tashkilotlarini davlat ro'yxatiga olishda muammolar paydo bo'lgan.

«Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi Qonun 29 ta moddadan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 52-bobi sug'urtaviy huquqiy munosabatlarga bag'ishlangan. Unda jami 47 ta modda mavjud. Kodeks sug'urta tashkilotlari bilan sug'urtalanuvchilar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solsa, «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi Qonun sug'urta tashkilotlari va davlat o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

Mustaqillik yillari sug'urta sohasini huquqiy tartibga solishga qaratilgan qator qonunchilik hujjatlari qabul qilindi. Sug'urta faoliyatini tartibga soluvchi dastlabki «Sug'urta to'g'risida»gi Qonun 1993 yil 6 mayda qabul qilingan. Keyinchalik mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida, sug'urta tizimida yuz bergan o'zgarishlarni hisobga olib, mazkur qonun bekor qilindi va yangi tahrirda «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi. 1993-2009 yillar davomida milliy sug'urta tizimi faoliyatini qonuniy tartibga solish bilan bog'liq o'nlab qonunchilik hujjatlari qabul qilindi va ular muntazam takomillashtirilib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida sug'urta faoliyati qonunchilik bazasini shartli ravishda to'rt guruhga ajratish mumkin.

1) Sug'urtalovchilar va boshqa sug'urta bozori professional ishtirokchilarini tuzish, ularning faoliyatini litsenziyalash, yuritish va tugatish hamda sug'urta shartnomalarini imzolash va ijro etilishini ta'minlash bilan bog'liq qonunchilik hujjatlari. Mazkur qonunchilik hujjatlari tarkibiga, birinchi galda, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksini kiritish mumkin. Ushbu kodeksning 52-bobi sug'urtaga bag'ishlangan bo'lib, unda jami 48 ta modda mavjud. Kodeksda mulkiy, shaxsiy sug'urta va zarar etkazganlik uchun javobgarlikni hamda

tadbirkorlik xavfini sug'urta qilish bo'yicha shartnomalarni tuzish shartlari bayon etilgan. SHuningdek, sug'urtalashga yo'l qo'yilmaydigan manfaatlar ham kodeksda ko'rsatib o'tilgan. Sug'urtalashga yo'l qo'yilmaydigan manfaatlarga quyidagilar kiradi:

- g'ayriqonuniy manfaatlarni sug'urtalashga yo'l qo'yilmaydi;
- qimor, lotereya va garov o'yinlarida ishtirok etishda ko'riladigshan zararni sug'urtalashga yo'l qo'yilmaydi;
- garovga olinganlarni ozod qilish maqsadida shaxs majburan qilishi mumkin bo'lgan harajatlarni sug'urtalashga yo'l qo'yilmaydi.

Fuqarolik kodeksida majburiy sug'urta va majburiy davlat sug'urtasini amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Xususan, majburiy sug'urta sug'urta qildiruvchining o'z mablag'lari, davlat majburiy sug'urtasi esa Davlat byuyudjeti mablag'lari hisobidan amalga oshirilishi ta'kidlangan.

Kodeksning eng muhim jihati shundaki, unda sug'urta shartnomasining mazmuniga oid normalar mavjud. Masalan, kodeksning 922-moddasida sug'urta shartnomasining muhim shartlari keltirilgan. Sug'urta faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlari ichida 2002 yil 5 aprelda qabul qilingan "Sug'urta faoliyati to'g'risida" gi Qonun muhim o'rin tutadi. Mazkur qonunga 2009 yil 1 oktyabr holatiga qadar qator qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilgan. Ushbu qonunning muhim tomoni shundaki, unda maxsus vakolatli davlat organining vakolatiga kiruvchi vazifalari bayon etilgan, bundan tashqari, unda sug'urta bozori professional ishtirokchilarini tuzish va davlat ro'yxatidan o'tkazish, sug'urtalovchilarning ustav fondiga o'rnatilgan talablar ko'rsatib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2002 yil 27 noyabrdagi 413-sonli qarori asosida "Sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining sug'urta faoliyatini litsenziyalash to'g'risida Nizom" tasdiqlangan. Nizomda litsenziya talablari va shartlari, litsenziya olish uchun zarur bo'lgan hujjatlar, arizalarni ko'rib chiqish va litsenziya berish yoki litsenziya berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilish kabi masalalar yoritilgan.

Sug'urtalovchining sug'urta faoliyatini litsenziyalashdagi asosiy masalalardan biri amalga oshirilishi rejalashtirilgan sug'urta faoliyatining iqtisodiy asoslanishi hisoblanadi. Asosnomada litsenziya talabgorining sug'urtalash operatsiyalarini rivojlantirish prognozi, ehtimol tutilgan qayta sug'urtalash bitishuvlari va sug'urta zahiralarining hisob-kitob rejasini o'z ichiga oluvchi litsenziyalanayotgan sug'urta klassi bo'yicha biznes-reja ilova qilingan bo'lishi lozim. Maxsus vakolatli davlat organiga da'vogar sug'urtalashning litsenziya talab qilinadigan turlari bo'yicha qoidalarni ham taqdim etishi talab qilinadi. Qoidada sug'urtalash ob'ektlari doirasi va sug'urta shartnomasidagi umumiy istisnolar, sug'urta hodisalari ro'yxati belgilanishi zarur. SHuningdek, sug'urta qilish qoidalarida sug'urta mukofotlari tariflari, sug'urtalashning eng ko'p (eng kam) muddati, sug'urta shartnomalarini tuzish va sug'urta mukofotlarini to'lash tartibi, tomonlarning sug'urta shartnomasi bo'yicha o'zaro majburiyatlari va sug'urta shartnomalari bo'yicha to'lovni rad etishning mumkin bo'lgan holatlari, sug'urta shartnomasi bo'yicha e'tirozlarni ko'rib chiqish tartibi ham atroflicha o'z aksini topgan bo'lishi kerak.

“Sug'urta faoliyati to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga asosan maxsus vakolatli davlat organi sug'urtalovchining ijro etuvchi organi rahbarlari va bosh buxgalteriga ijro etilishi majburiy bo'lgan malaka talablarini belgilaydi. SHunga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2008 yil 11 iyundagi 61-son buyrug'i bilan “Sug'urtalovchining (sug'urta brokerining) rahbariga va bosh buxgalteriga qo'yiladigan malaka talablari to'g'risida”gi Nizom tasdiqlangan. Ushbu Nizom 2008 yil 18 iyunda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 1827-son bilan davlat ro'yxatiga olingan. Nizomga muvofiq sug'urtalovchi yoki sug'urta brokeri va bosh buxgalteri lavozimiga tavsiya etilayotgan nomzodlarning hujjatlari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga ular lavozimga tayinlanishidan oldin malaka talablariga javob berishini o'rganish nuqtai nazaridan taqdim etiladi. Nizomga asosan sug'urtalovchining yoki sug'urta brokerining rahbari quyidagi malaka talablariga javob berishi kerak:

a) O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida olingan oliy ma'lumotga yoki xorijiy davlatlarning ta'lim muassasalarida olingan hamda qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasiga oliy ma'lumotga ekvivalent deb tan olingan oliy ma'lumotga ega bo'lishi;

b) sug'urta sohasida ikki yildan kam bo'lmagan ish tajiga ega bo'lishi.

Bundan tashqari, sug'urtalovchi va sug'urta brokerining bosh buxgalteri quyidagi malaka talablariga mos kelishi shart:

a) O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida olingan oliy ma'lumotga yoki xorijiy davlatlarning ta'lim muassasalarida olingan hamda qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasiga oliy ma'lumotga ekvivalent deb tan olingan oliy ma'lumotga ega bo'lishi;

b) buxgalter sifatida 3 yildan kam bo'lmagan ish tajiga ega bo'lishi, shundan sug'urta sohasida buxgalter sifatida bir yildan kam bo'lmagan ish tajiga ega bo'lishi kerak.

2) Sug'urtalovchilar uchun prudensial talablarni belgilovchi normativ-huquqiy hujjatlar.

Sug'urta faoliyatini tartibga solish bilan bog'liq prudensial talablar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2008 yil 22 apreldagi 41-son buyrug'iga muvofiq tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2008 yil 12 mayda 1806-son bilan davlat ro'yxatidan o'tgan "Sug'urtalovchilar va qayta sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyati to'g'risida Nizom", O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2008 yil 20 noyabrdagi 107-son buyrug'iga binoan tasdiqlangan va Adliya vazirligida 2008 yil 15 dekabrda 1882-son bilan davlat ro'yxatiga olingan "Sug'urtalovchilarning sug'urta zahiralarini to'g'risidagi Nizom" va boshqa shu kabi normativ-huquqiy hujjatlarda o'z ifodasini topgan. Xususan, "Sug'urtalovchilar va qayta sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyati to'g'risida"gi Nizomda sug'urtalovchining alohida tavakkalchiliklar bo'yicha majburiyatlarining yo'l qo'yiladigan eng ko'p miqdori sug'urta zahiralarini va o'z mablag'lari manbalari summasining 20 foizidan oshmasligi shart ekanligi ko'rsatib o'tilgan. Masalan, sug'urtalovchining sug'urta zahiralarini va o'z mablag'lari

miqdori 5,0 mlrd so‘mni tashkil etadi. Demak, nizomga asosan sug‘urtalovchining alohida tavakkalchiliklar, ya’ni bitta sug‘urta shartnomasi doirasida zimmasiga olmoqchi bo‘lgan majburiyati 1,0 mlrd so‘mdan oshib ketmasligi zarur. Agar sug‘urta majburiyati miqdori 1,0 mlrd so‘mdan oshib ketsa, u holda sug‘urtalovchi oshgan summani qayta sug‘urta qilishi shart.

Umumiy sug‘urta sohasida yoki faqat qayta sug‘urta qilish faoliyatini amalga oshiradigan sug‘urtalovchilar uchun majburiyatlarning jami miqdori o‘z mablag‘lari manbalari summasining 200 foizidan oshib ketmasligi zarur. Bu haqda “Sug‘urtalovchilar va qayta sug‘urtalovchilarning to‘lov qobiliyati to‘g‘risida”gi Nizomda aniq ko‘rsatib qo‘yilgan. Sug‘urtalovchining o‘z mablag‘lari deganda, ustav fondi, qo‘shimcha kapital, zahira kapitali, taqsimlanmagan foyda va maqsadli tushumlar summalarining yig‘indisi tushuniladi.

Amaldagi qonunchilik hujjatlari bo‘yicha sug‘urtalovchilar yuridik va jismoniy shaxslarni sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha kelib tushgan sug‘urta mukofotlari hisobidan o‘rnatilgan tartibda sug‘urta zahirasi mablag‘lar ajratishi shart. Sug‘urta zahiralarini shakllantirish bo‘yicha talablar va ularni hisob-kitob qilish tartibi “Sug‘urtalovchilarning sug‘urta zahiralarini to‘g‘risida”gi Nizomda qayd etilgan. Sug‘urta zahiralarini har bir sug‘urta turi bo‘yicha sug‘urta to‘voni to‘lanishi zarur bo‘lgan valyutada shakllantiriladi. Sug‘urtalovchi sug‘urta zahirasini buxgalteriya hisobotini tuzish paytida hisobot davri holatiga sug‘urta faoliyatini amalga oshirish bo‘yicha olingan moliyaviy natijani aniqlashda hisoblaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2008 yil 11 iyuldagi 77-sonli, Davlat soliq qo‘mitasining 2008-3-sonli va Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash davlat qo‘mitasining 2008 yil 26 iyuldagi 13-son qarorlari bilan tasdiqlangan va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2008 yil 15 avgustda 1842-son bilan ro‘yxatga olingan “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganligi uchun sug‘urtalovchilarga jarima sanksiyalarini qo‘llash tartibi to‘g‘risida”gi Nizomda sug‘urtalovchilarga sug‘urta faoliyati to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun jarima

sanksiyalarini qo'llash tartibi belgilangan. Nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 21 maydagi PQ-872-sonli "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan. Mazkur Nizomga muvofiq sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganligi uchun sug'urtalovchilarga jarima sanksiyalarini qo'llash to'g'risidagi qarorlar sug'urta faoliyatini tartibga soluvchi va nazorat qiluvchi maxsus vakolatli davlat organi- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan qabul qilinadi. Sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlari, sug'urtalovchilar tomonidan buzganligi uchun ularga sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq sug'urtalovchi uchun belgilangan ustav fondi eng kam miqdorining 1,0 foizi miqdorigacha jarima solinadi.

3) Sug'urta munosabatlari ishtirokchilariga imtiyozlar berish bilan bog'liq qonunchilik hujjatlari. Bunday toifadagi hujjatlarga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2006-2010 yillarda O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatish va sersis sohasi rivojlanishini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2006 yil 17 apreldagi PQ-325 son, "2010 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatish va sersis sohasi rivojlanishini jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2007 yil 21 maydagi PQ-640-son qarorlarini hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sug'urta xizmatlari bozorini rivojlantirish va yanada isloh qilish bo'yicha chora-tadbirlari to'g'risida" gi 2007 yil 10 apreldagi 618-son Farmoni hamda "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2008 yil 21 maydagi PQ-872-son Qarori kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2006-2010 yillarda O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatish va sersis sohasi rivojlanishini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2006 yil 17 apreldagi PQ-325-son Qaroriga asosan sug'urta faoliyatidan olinadigan daromad (foyda) 3 yil muddatga daromad (foyda) solig'i to'lashdan ozod etildi. SHuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatish va sersis sohasi rivojlanishini jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi

2007 yil 21 maydagi PQ-640 son Qaroriga muvofiq sug'urta bozori professional ishtirokchilari daromad (foyda) solig'i to'lashdan ozod etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2007 yil apreldagi PQ-618 son Qarori mamlakatimizda sug'urta bozorini yangi pog'onaga ko'tarilishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Avvalo mazkur farmonga asosan sug'urta bozorini rivojlantirish hamda yuridik va jismoniy shaxslarning sug'urtalashda keng qatnashishini rag'batlantirish maqsadida mol-mulkni va hayotni uzoq muddatga sug'urtalash bo'yicha sug'urta mukofotlari soliqqa tortilmasligi belgilab qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2008 yil 21 maydagi PQ-872- son Qarori asosida sug'urtalovchilarga soliq imtiyozlari berildi (3-ilova). YA'ni, 2008 yilning 1 iyunidan boshlab uch yil muddatga yuridik va jismoniy shaxslarning sug'urtalovchilar aksiyalari bo'yyicha dividendlar ko'rinishida olingan daromadlari yuridik shaxslarning foyda solig'i hamda jismoniy shaxslarning daromad solig'ini tshlashdan ozod qilindi. SHuningdek, sug'urtalovchilarning dividendlar va foizlar ko'rinishida olingan daromadlari ham yuridik shaxslarning foyda solig'ini to'lashdan ozod qilindi va soliqlardan bo'shagan mablag'lar respublika hududlarida, birinchi navbatda, qishloq joylarida hududiy bo'linmalarni, keng tarmoqli agentlik tizimini tashkil qilish, shuningdek, ularning mlldiy-texnika bazasini rivojlantirishga maqsadli yo'naltirilishi qarorda qat'iy belgilab qo'yildi.

4) Sug'urtaning ayrim turlarini amalga oshirish tartibini belgilovchi qonunchilik hujjatlari. Sug'urta faoliyatini tartibga solishga qaratilgan qonunchilik hujjatlarining mazkur guruhiga «Umumiy foydalanishdagi havo, temir yo'l, ichki suv va avtomobil transporti yo'lovchilarining majburiy shaxsiy sug'urtasi to'g'risida» 1993 yil 7 mayda, «Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida» 2008 yil 21 aprelda va «Ish

beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida» 2009 yil 16 aprelda qabul qilingan qonunlarni kiritish mumkin.

2008 yil 21 aprelda qabul qilingan “Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida”gi Qonun 41 moddadan iborat bo'lib, unda majburiy sug'urtani amalga oshirishning tartibi va shartlari, xususan, transport vositalari egalarining o'z fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish majburiyati, majburiy sug'urta shartnomasi, majburiy sug'urta bo'yicha sug'urta tariflarini davlat tomonidan tartibga solish kabi huquqiy normalar o'z aksini topgan. SHuningdek, sug'urta mukofoti, sug'urta mukofoti bo'yicha siylovlar, majburiy sug'urtani amalga oshiruvchi sug'urtalovchilarga qo'yilgan talablar, sug'urta hodisalari sodir bo'lishi natijasida etkazilgan zararlarni qoplash tartibi ham mazkur qonunda yoritib berilgan.

Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish qoidalarini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Transport vositalari egalarining Fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida” 2008 yil 24 iyundagi 141-sonli qaroriga asosan tasdiqlangan. Ushbu qarorda majburiy sug'urtani amalga oshirishning barcha qirralari ko'rsatib o'tilgan.

2009 yil 16 aprelda “Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi. Bu qonunni qabul qilishdan maqsad xodim o'z mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog'liq holda mehnatda mayib bo'lishi, kasb kasalligiga chalinishi yoki sog'ligi boshqacha tarzda shikastlanishi natijasida uning hayoti va sog'ligiga etkazilgan zararni qoplash bo'yicha ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish hisoblanadi. Qonunda ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishni amalga oshirish shartlari va tartibi, sug'urta hodisasi yuz berganda sug'urta tovonini to'lash kabi huquqiy normalar yoritilgan. SHuningdek, ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish sub'ektlarining huquq va majburiyatlari, sug'urtalovchi va annuitetlar shartnomasi bo'yicha

sugʻurtalovchi faoliyatining oʻziga xos xususiyatlari ham qonunda aniq bayon etilgan.

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2009 yil 24 iyunda “Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish toʻgʻrisida” Oʻzbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida” 177-sonli qaror qabul qildi. Bu qarorga muvofiq ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish qoidalari tasdiqlandi. Mazkur qoidalarda ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish shartnomasini tuzish, oʻzgartirish va uning amal qilishini muddatidan oldin toʻxtatish tartibi, sugʻurta summasi, sugʻurta mukofoti va uni toʻlash shartlari, shartnomada ishtirok etuvchi tomonlarning huquq va majburiyatlari kabi holatlarni huquqiy tartibga soluvchi jihatlar koʻrsatib oʻtilgan